



UDC: 159.9.072:378.015.3

Maxfuzaxon QODIROVA,

Mustaqil izlanuvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: kodirovamaiza@gmail.com

TPMI professori, DSc R.Medetova taqrizi asosida

THEORETICAL BASIS OF DEVELOPING REFLECTION IN STUDENTS

Abstract

This article explores the theoretical foundations for developing reflexivity in English language students and the nature of personal factors. It analyzes the ideas of several scholars used as the theoretical basis for the study. Through reflection, it demonstrates the attitudes of educational participants toward their own activities and the results of their reflexivity. It also describes levels of reflexivity, critical thinking, self-dissatisfaction, the desire for constant exploration, skills and professional qualities, and personal character traits.

Key words: reflection, personal factors, professional characteristics, personal qualities, critical thinking, imagination, education, development.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКСИИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье освещены теоретические основы развития рефлексивности у студентов направления английского языка и сущность личных факторов. В ней приведён анализ идей ряда учёных, взятых в качестве теоретической базы исследования. Через рефлексию показаны отношения участников образовательного процесса к собственной деятельности и результаты их рефлексивности. Также описаны уровни рефлексивности, критическое мышление, неудовлетворённость собой, стремление к постоянному поиску, навыки и профессиональные качества, а также личные черты характера.

Ключевые слова: рефлексия, личностные факторы, профессиональные характеристики, личностные качества, критическое мышление, воображение, образование, развитие.

TALABALARDA REFLEKSIVLIKNI RIVOJLANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tili yo'nalishi talabalarida refleksivlikni rivojlanishning nazariy asoslari va shaxsiy omillar mohiyatiga oid fikrlar yoritilgan. Unda tadqiqotning nazariy asoslari sifatida qator olimlarning g'oyalari bo'yicha tahlillar qayd etilgan. Refleksiya orqali ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati va ulardagi refleksivlik natijalari keltirib o'tilgan. Shuningdek, refleksivlik darajalari, tanqidiy tafakkur, o'z-o'zidan qoniqmaslik, doimiy izlanishda bo'lishga intilish ko'nikmalari va kasbiy xususiyatlar bilan birga shaxs fazilatlarini haqida tavsivlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: refleksiya, shaxsiy omillar, kasbiy xususiyatlar, shaxs fazilatlarini, tanqidiy tafakkur, tasavvur, ta'lim-tarbiya, rivojlanish.

Kirish. Mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlarda keltirilishicha, refleksiv ko'nikma xulq-atvorning mohiyatini aniqlashga yordam beradi va fikrlashning shaxs uchun ahamiyatli bo'lgan komponentlari bilan qo'shilib, samarali vaziyatlarni hal qilish chog'ida yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Refleksiv fikrlash xulq-atvorda bajaradigan funksiyalarning xilma-xilligi hamda harakatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi, ta'lim jarayonlarini amalga oshirishdagi ahamiyati bilan kerakli unsur deb hisoblashga asos bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Refleksiya orqali ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati muvofiqlashtiriladi. Hamkorlikdagi faoliyatning shakl va mazmuniga mos ravishda mazkur faoliyatning qayta tashkil etilishi ta'minlanadi. A.S.O'uboxovning fikricha kasbiy mahoratni oshirishning asosi sifatida pedagogik refleksni o'rganishda [4], N.A.Kornilovning bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash sharti sifatida pedagogik refleksni rivojlantirish bo'yicha [2], G.S.Pyankovning bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kasbiy refleksivlikning rolini o'rganish, T.F.Ushevaning talaba va o'qituvchilar kasbiy faoliyatida refleksivlikni rivojlantirish jarayonini o'rganish va A.A.Shemshurinning yoshlarda

refleksiv qobiliyatlarning rivojlanishi muammosi kabi tadqiqotlarning barchasi ta'limda kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida refleksivlikni rivojlantirish zaruriyati, uning dolzarbligiga bag'ishlangan. Tadqiqot yuzasidan o'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirga qadar ingliz tili yo'nalishi talabalarida refleksivlikni rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlar mavjud emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz tili yo'nalishi talabalaridan, mohiyatiga ko'ra, bo'lg'usi pedagog sifatida doimiy ijtimoiy faollik talab etiladi. Ma'lumki, pedagog har bir ish kunining faol qismida o'quvchilar, kasbdoshlar, ota-onalar bilan o'z xizmat vazifasi yuzasidan doimiy muloqotda bo'lib turadi. Bu muloqotlarning har bir ko'rinishi ikki yoqlama bo'lib, har doim tinglovchi va so'zlovchi maqomida ishtirok etadi. Ushbu muloqotlar kasbiy faoliyatda ijobiy ahamiyat kasb etib, unda yuqori darajadagi refleksiv mahoratni taqozo etiladi. Ko'pgina tadqiqotchilar fikrlashdagi refleksiyada inson tasavvurining xuddi o'sha insonga bo'lgan munosabati aks etadi deb hisoblaydilar. Aksincha, inson o'z xatti-harakatlarini tahlil etar ekan, o'zida yangi xususiyatlar tarkib topishiga va hozirgacha orttirgan, lekin yuzaga chiqishi uchun yetarli imkoniyatlar yaratilmagan ko'nikma va malakalarni kashf etadi. Ingliz tili yo'nalishi talabalarini o'z tafakkuri va

tasavvurining yangi tashkil etuvchisini anglab boradi. Biroq, hal etilishi ko'zda tutilgan va hal etilmagan vazifalarni saralash, fikrlashda zarur va zarur bo'lmagan intilish, atrofda narsa va hodisalarning yangi qirralarini anglash, mulohazalar, ramzlar vositasida olib borish xususiyatlari kiradi.

Tafakkur va tasavvur o'quv amaliyotida, dars jarayonlari uchun muhim tushuncha. O'quv – o'qitish faoliyatini tashkil etar ekan, refleksiya subyektning muhimni nomuhimdan ajratib olish, tahlil etish va tafakkurni o'z faoliyat turiga aylantirish mahorati sanaladi. P.Ya.Galperin, V.L.Danilova, B.D.Elkonina kabi tadqiqotchilar insondagi refleksiya hodisasida ishtirok etadigan barcha fikr va xatti-harakatlar orasida o'zaro bog'liqlik mavjudligini ta'kidlashadi. Mazkur farazlar yoritilgan ilmiy manabalarda inson o'z-o'zini tadqiq qilgan ekan, o'rganish, tanish, bilish, anglash, idrok etish, fikrlash, mulohaza yuritish, xulosa qilish va baholash kabi intellektual hodisalarning hammasi doimiy ketma-ketlikda kechishi yoritilgan. Shu bilan birga, ulardan bittasi to'kis bo'lmasligi boshqa intellektual hodisaning yetarli darajada bo'lishiga monelik qilishi ham qayd etilgan [5].

Tahlil va natijalar. Ingliz tili yo'nalishi talabarlari o'z faoliyatlarida refleksiyaning rivojlanishini borishi natijasida kasbiy xususiyatlar bilan birga shaxs fazilatlarini ham shakllanishi yuzaga keladi. Xususan:

Birinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonlari bilan bog'liq voqelikka nisbatan ta'sirchanligi ortadi va buning natijasida o'zi tomonidan yo'l qo'yilgan har qanday kamchiliklar, sodir etilgan xatolarni tez ilg'aydi va ularni bartaraf etish chorasini ko'rish fazilati shakllanadi.

Ikkinchidan, o'z o'quv faoliyatiga baho berishda xolisligi ortadi. Refleksiya natijasida ta'lim jarayonidagi ishtirokchilari: guruhdoshlari, kursdoshlari nazari bilan qarashi natijasida baholash mezonlari talabida baholashi ortadi. Ya'ni talaba o'z faoliyati haqida, shaxs sifatida tasavvurlari boyib boradi. Uchinchidan, kamchiliklarga murosasizlik fazilati shakllanadi. Ingliz tili yo'nalishi talabarlari reflektiv muhit sharoitida o'z faoliyatini tashkil qilganda shaxsni hosil qilgan shaxsiy fazilatlarining ahamiyatini tushunib yetadi. Mavjud fazilatlarini shakllantirish, nuqsanlarni o'z vaqtida bartaraf qilish evaziga dars jarayonlarida samaraga ega bo'lish ishonchi hosil bo'ladi. To'rtinchidan, ingliz tili yo'nalishi talabarlari reflektiv muhit vositasida pedagogik madaniyatga ham erishib boradi. Refleksivlik pedagogik muhitda shakllangan bilim, ko'nikma va malakalar, shaxsiy fazilatlar in'ikosi sifatida tarkib topadi. Yuksak darajada rivojlangan refleksiya natijasida pedagogik kasbiy kompetentlik hosil bo'ladi. Refleksiya o'z faoliyatini yaqin kelajak va uzoq muddatli istiqbolni nazarda tutgan rejalar asosida qurishga intilgan har bir shaxs uchun zarur bo'lgan xususiyatdir. Inson o'zi bilgan, anglagan va idrok etgan instansiya va subyektlar doirasida fikr yuritadi, binobarin, reflektiv qobiliyat anglangan, idrok etilgan subyektlar doirasining qanchalik kengligi inson reflektiv mahoratining darajasini belgilab beradi. Refleksiv qobiliyatning inson zakovati, tushunchasi, voqea hodisalarni idrok etish darajasiga bog'liq ekanligini bir guruh olimlar o'z tadqiqotlarida isbotlab bergan. J.Lokning ta'kidlashicha, "Refleksiya mening nazaramda inson tafakkuri to'liq safarbar etilgan botiniy tahlil bo'lib, unda insonning his-tuyg'ulari, bilish va anglash, idrok etish va xulosa chiqarish, qaror qabul qilish va istiqbolni belgilash singari psixologik xatti-harakatlar sodir etilgan hodisalardan saboq olishga qaratilgan bo'ladi" [3].

ADABIYOTLAR

1. Абулханова-Славская К.А. Субъект и субъектность: проблема определения качеств // В кн.: Развитие психологии в системе комплексного человекознания / отв.ред.:А.Л.Журавлев, В.А.Кольцова. – Ч. 1. М.: Институт психологии РАН, 2012. – С. 49-62.
2. Корнилова Н.А. Формирование профессиональной рефлексии будущего специалиста: диссертация... кандидата психологических наук / Н.А.Корнилова. – Кемерово, 2009. – 285 с.
3. Милованов К.Ю. Социально-философская доктрина и педагогические взгляды Джона Локка // Проблемы и перспективы развития образования в России. – №4. 2017. – С.18-25.
4. Обухов А.С. Рефлексия в проектной и исследовательской деятельности / А.С.Обухов // Исследовательская работа школьников. – 2005. – № 3. – С. 19-38.
5. Семенов И.Н. (2017). Персоналогическая рефлексия жизнестворчества П.Я. Гальперина / Вестник Московского университета. Серия 14. Психология, (2), 3-29. <https://doi.org/10.11621/vsp.2017.02.03>
6. Qodirova M.A. Ingliz tili yo'nalishi talabalarida reflektivlikni rivojlantirish va ularning o'zini tahlil qilish, o'zgarishlarni amalga oshirish turlari // Pedagogika j. 1-son, 2025. – B. 109-112.

Binobarin, ingliz tili yo'nalishi talabalarida pedagogik faoliyat ijtimoiy jamiyatning tizimli majmuasiga chuqur kirib borishini anglatadi. Mazkur kasbiy faoliyatga tayyorlanish jarayonida refleksiyaning rivojlanishini shaxs va ijtimoiy jamiyatning o'zaro munosabatlari ikki tomonlama samarali bo'lishida, shaxsning fazilati tarkib topishini taqozo etadi. A.A.Bodalevaning fikriga ko'ra, "pedagogik faoliyatda kasbiy refleksiya boshqa sohalariga zarur bo'lgan refleksiyaning uch jihat bilan farq qiladi. Ular: olingan bilim; orttirilgan ko'nikma; o'rganilgan tajribaning darajaga uzviy bog'liqligidir". "O'qituvchi-talaba" munosabatlarining o'zaro samarali tarzda davom ettiruvchi refleksiya, ya'ni kasbiy mahoratni ta'lim oluvchining bilimi, ko'nikmasi, anglash va idrok etishini obyektga yo'naltiradi. Shuningdek, dars turi va fanning mazmun jihatdan murakkablashib borishiga bog'liq ravishda o'zgaruvchanligini ta'minlaydi.

Ushbu tadqiqotning belgilangan vazifalariga ko'ra ingliz tili yo'nalishi talabalarida reflektivlikni rivojlantirish davomida ularning shaxsiy omillari ham o'rganildi. Ta'kidlash joizki, reflektivlikni rivojlantirishda determinantlarni aniqlash va kasbiy faoliyatning reflektiv dinamikasini o'rganish jarayonlarini ham o'zida aks ettiradi. Mazkur yondashuv bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashga oid muammolarni hal qiladi. Shuningdek, talabalar universitetda o'qish bilan bir vaqtda shaxsiy omillarini rivojlantirishga oid reflektivlik aniqlandi.

Tadqiqot nazariyasida reflektivlikning ilmiy tamoyillari A.Ribalko, V.A.Metayeva va kasbiy kompetentlik faoliyatga yondashuvlar hisobga olingan reflektivlik nazariyasi Yu.V.Kusheverskaya, A.V.Karpov kabi tadqiqotchi olimlarning izlanishlarida tavsiflab o'tilgan. Jumladan:

- kasbiy faoliyat rivojlanishi va individual tizimli yondashuv;
- talabalarini kasbiy tayyorlash va reflektivlikning shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvi;
- subyekt-faoliyat yondashuvi [1].

Ingliz tili yo'nalishi talabalarida reflektivlikni rivojlanishiga oid tadqiqotni olib borishda quyidagi usullar qo'llanildi: 1) nazariy usullar – sintez qilish va umumlashtirish usullari asosida tadqiqot muammosi bo'yicha xorijiy va mahalliy pedagogik adabiyotlar tahlil qilindi,

2) empirik tadqiqot usullari – tajriba natijalarini aniqlash usullari asosida ishtirokchilarni kuzatish, faol o'rganish, ish faoliyatini tahlil qilish, aniqlash ishlari amalga oshirildi;

3) sifatli va miqdoriy ma'lumotlarni qayta ishlash usullari (Pearsonning χ testi) tahlil etildi [6].

Xulosa. Ingliz tili yo'nalishi talabarlari reflektiv muhitda kasbiy faoliyatni kuzata bilish, o'z vaqtida anglab olishi, narsa-hodisalarning tub mohiyatini tez idrok etish va tegishli qaror chiqarishi zarur. Shuningdek, har qanday ma'lumot hamda axborotni tez qabul qilib, tahlil eta bilishi, har qanday nuqtayi nazar yoki farazni ma'lumot o'rnida qabul qila olishi, topshiriqlarni kamchiliksiz bajara olishi va muomalada namunali bo'lishi kabi shaxsiy hamda kasbiy fazilatlar egasi bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Refleksiya ingliz tili yo'nalishi talabalarining kasbiy faoliyatini shakllantirishda guruhi, kursdoshlariga, umuman olganda kasbiy va ijtimoiy faoliyatida uchraydigan barcha shaxslar o'rtasidagi muomila madaniyatini oshiradi. Refleksiya talabalarining o'zi tanlagan yo'nalishiga mutaxassis sifatida qiziqishiga va bo'lajak pedagog sifatida imkoniyatlar eshigining ochilishiga xizmat qiladi.